



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзаев А., Рахимов Ш. “Корамолларда репродуктив касалликларнинг профилактикаси ва даволаш усуллари”. Тошкент, 2022.
2. Karimov B. “Veterinary Reproductive Health”. Samarkand, 2021.
3. Qodirov N. “Endometrit va uning davolash usullari”. Ilmiy axborotlar, 2023.
4. Rantanen, M., Müller, R., & Becker, F. (2019). Early diagnosis of subclinical endometritis in dairy cows using ultrasonographic and cytological methods. *Journal of Dairy Science*, 102(8), 7543–7552. DOI: 10.3168/jds.2019-16542
5. Юнусов, Х., Комилжонов, С., & Федотов, Д. (2024). МОРФОЛОГИЯ ЯИЧНИКОВ У КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В НЕКОТОРЫЕ ВОЗРАСТНЫЕ ПЕРИОДЫ. Вестник Ошского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния, (1), 74-80.
6. Юнусов, Х. Б., Федотов, Д. Н., Васютенок, В. И., Сафаров, А. А., & Комилжонов, С. К. (2022). Основы перепеловодства и повышения яйценоскости птицы.
7. Федотов, Д. Н., Комилжонов, С. К., & Кучинский, М. П. (2019). Структурно-функциональная характеристика яичников у крупного рогатого скота при применении витаминно-минерального препарата «Антимиопатик».
8. Юнусов, Х. Б., & Комилжонов, С. К. (2025). Влияние витаминно-минерального препарата на обмен некоторых минеральных веществ в крови у крупного рогатого скота.
9. Комилжонов, С. К. (2025). Морфологические изменения фолликулярного аппарата яичника крупного рогатого скота при применении витаминно-минерального препарата.
10. Юнусов, Х. Б., & Комилжонов, С. К. (2024). Особенности морфологических изменений яичников при их гипофункции у коров.

BIOTEXNOLOGIK USULLAR BILAN OQAVA SUVLAR IFLOSLANISHINI KAMAYTIRISH

Bauetdinova S.M.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida sanoat, ishlab chiqarish va qishloq xo'jalik korxonalaridan chiqadigan oqava suvlarni tozalash borasida ko'plab olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilqda. Rossiyaning Amur rayonida oltin ishlab chiqarish zavodining oqava suvlarini tozalashda ryaska (*Lemna minor* L.) o'simligidan foydalanilgan. Olingan natijalarda kimyoviy usulda 78%, ryaska (*Lemna minor* L.) o'simligidan foydalanilganda esa 95% gacha oqava suvlarini tozalanganligi aniqlangan.

Ukraina milliy texnik universiteti olimlari oqava suvlarni o'zlarining an'anaviy tozalash texnologiyalaridan tashqari aerob va anaerob usullarda tozalash texnologiyasi ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan. Ushbu texnologiya oqava suv tarkibidagi organik moddalarni, azot va fosforni mikroorganizmlar yordamida yo'q qilishga qaratilgan. Tadqiqotlar natijasida oqava suvlardagi kimyoviy kislorodga bo'lgan talab 86,7-93%, azotning miqdori esa 96,9-97,9% gacha kamayganligi, ifloslangan suvlar Ukrainadagi an'anaviy texnologiyalarga nisbatan tozalash samaradorligi 95% dan yuqori ekanligi qayd etilgan.

Qirg'iziston shahridagi kanalizatsiyasidan chiqadigan oqava suvida kichik ryaska (*Lemna minor* L.) o'simligini o'stirish borasida tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bunga ko'ra, birinchi variantda kichik ryaska (*Lemna minor* L.) 100% oqava suvga ekilganda mahsuldorlik 74,8 g/m², ikkinchi variantda oqava suv 75%+25% vodoprovod suvida 91,7 g/m², uchinchi variantda esa oqava suv 50%+50% vodoprovod suvida 126,4 g/m² ni, to'rtinchi variantda esa oqava suv 25%+75% vodoprovod suvida 82,2 g/m² tashkil qilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatganki 1:1 nisbatdagi, ya'ni oqava suv 50%, vodoprovod suvi 50% muhitda ekilgan kichik ryaska (*Lemna minor* L.) ning mahsuldorligi qolgan variantlarga nisbatan yuqori bo'lgan. Hosil bo'lgan biomassadan chorvachilikda, parrandachilikda va baliqchilikda yashil oziqa sifatida qo'llanilgan.

Qirg'izistondagi chorvachilik kompleksidan chiqadigan oqava suvlarni yuksak suv o'simliklari yordamida tozalash va o'simliklar biomassasini hosil qilish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqotni amalga oshirishda eyxorniya, elodeya, ryaska, azolla kabi suv o'simliklaridan foydalanilgan. Oqava suvlar tarkibidagi kislorodning kimyoviy sarflanishi va kislorodning biologik sarflanishi, qoldiq modda, azot, erigan kislorod, pH kabi ko'rsatkichlarga o'simliklar ta'siri aniqlangan. Bunga ko'ra oqava suvga ekilgan o'simliklardan azolla qolgan o'simliklarga nisbatan oqava suv tarkibidagi kimyoviy ko'rsatkichlarni ko'proq pasaytirganligi oqava suvlarni tozalashda ijobiy ta'siri va katta miqdorda o'simlik biomassasini hosil qilganligi aniqlangan.

Qozog'istondagi parrandachilik korxonasida ifloslangan oqava suvlarni xlorella (*Chlorella vulgaris*) yordamida tozalash amalga oshirilgan. Parrandachilik korxonasi oqava suvlarida xlorella (*Chlorella vulgaris*) ning rivojlanishi uning kimyoviy va sanitariya holatining yaxshilanishiga olib kelishi aniqlangan. Shu bilan birga, ifloslantiruvchi elementlar konsentratsiyasini 91,8% dan 95,7% gacha pasaytirishga erishilgan. Parrandachilik korxonasining chiqindi suvlari nafaqat azot va fosforni tarkibiy qismlarga, balki boshqa ko'plab kimyoviy elementlar va tuzlarga, shu jumladan mikroelementlarga ham boyligi mikroskopik suvo'tlarini yetishtirish uchun qulay muhit ekanligi aniqlangan. Olingan biomassa, ya'ni mikroskopik suvo'tlar tarkibidagi biologik faol moddalar chorvachilikda, parrandachilikda qo'shimcha ozuqa sifatida foydalanish maqsadida o'rganilgan.

O'zbekiston respublikasida tuban va yuksak suv o'tlarining tarqalishi, va ulardan unumli foydalanish bo'yicha bir qator olimlardan A.M. Muzaffarov, X.A. Berdiqulov, R.Sh. Shoyaqubov, J.Q. Qutliev, S.B. Bo'riev va boshqa olimlar suv o'tlari asosida yangi, zamonaviy biotexnologik usullar yaratish yo'lida ilmiy - tadqiqot ishlari olib borishgan. Hozirgi kunda ham bu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda [9]. O'zbekiston sharoitida yuksak suv o'simliklaridan pistiya (*Pistia stratiotes* L.) ni oqava suvlarda o'stirish R.Sh. Shoyakubovning tavsiyalari asosida amalga oshirilgan. Pistiyani laboratoriya sharoitida qishda issiqxonalarda shisha akvariumlarda beton hovuzlarda yozda esa temir – beton latoklarda va ochiq havoda o'stirish mumkin. Pistiya o'simligini o'stirish uchun ozuqa muhiti sifatida turli xil hayvonlar (ot, qoramol, qo'y, cho'chqa,) go'ngi, parranda go'ngi, chorvachilik komplekslaridan chiqadigan oqava suvlaridan va mineral ozuqa muhitidan foydalanib o'simlikni o'stirish mumkinligi o'rganilgan.

O'zbekistonda iqlim sharoitining mazkur o'simliklarning o'sib rivojlanishi uchun qulayligi ularning keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Ularni suv havzalari, hovuzlar, ko'llar va daryo qirg'oqlarida ko'plab uchratish mumkin. Yuksak suv o'simliklar 3 guruhga bo'linadi.

Suvning yuzasida suzib yashovchilar: pistiya (*Pistia stratiotes* L.), ryaska (*Lemna minor* L.), azolla (*Azolla carolipiapa* Willd.), eyxorniya (*Eichhorpia crassipes* L.) va boshqalar.

Suvning ostida yashovchilar: cuv to'ri, shoxbarg (*Ceratophyllum demersum* L.), gidrilla (*Hydrilla verticillata* L.), elodeya (*Elodia canadensis* Michx.) va boshqalar.

Yarim suvga botgan holda yashovchi o'simlikliklar: qamish (*Phragmites australis* L.), qo'g'a (*Typha angustifolia* L.), shoxbarg (*Ceratophyllum demersum* L.), urut (*Myriophyllum spicatum* L.), rdest (*Potamogeton perfoliatus* L.) va boshqalar mavjudligi o'rganilgan.

Oqava suvlar tarkibidagi har xil organik moddalarni o'zlashtiruvchi mikroorganizmlar mavjud. Ularga "faol loyqa" deyiladi. Faol loyqa anaerob sharoitda suvdagi organik moddalarni

juda ham sekinlik bilan o'zlashtirib, ularni mineral moddalarga aylantiradi. Bu jarayon o'zini o'zi tozalash deyiladi. Biologik hovuzlarda yashaydigan gidrobiontlar, ya'ni tuban va yuksak suv o'simliklar, mikroorganizmlarning metabolitik jarayonlarida o'zidan maxsus kimyoviy moddalar (antibiotiklar) chiqaradi. Bunday antibiotiklar oqava suvlar tarkibidagi kasallik tarqatuvchi potogen bakteriyalarini yo'q qilishi va suvni tozlashi o'rganilgan.

Yuksak va tuban o'simliklar yordamida kollektor suvlari tarkibidagi minerallar moddalar miqdorini kamaytirish ilmiy tadqiqot ishlari ham keng ko'lamda olib borilgan. Shulardan Buxoro viloyati hududidagi shimoliy zovur suvlarini minerallashuv darajasini pasaytirish maqsadida mikroskopik suvo'tlaridan *Chlorella vulgaris* va yuksak suv o'simliklari *Lemna minor* L. dan foydalanilgan bunga ko'ra laboratoriyaga olib kelingan suv namunalari o'simliklar ekilgan.

Hozirgi vaqtda oqava suvlarni tozalash inshootlari maxsus bakteriyalar "faol loyqa" yordamida tozalashga asoslangan. Bakteriyalar organik moddalarni parchalab mineral moddalarga aylantiradi. Bakteriyalar tomonidan oqava suvlarni tozalash jarayonida organik moddalarni parchalanishi, kislorodni juda ko'p sarflanishiga olib keladi. Bu esa bakteriyalarning hayotiy jarayonining mahsuloti bo'lgan karbonat angidrid gazini havoga chiqaradi, natijada havoni ifloslantiruvchi karbonat angidrid gazining havo tarkibidagi miqdori oshadi. Bunday havoni ifloslantiruvchi gazlarni kamaytirish maqsadida oqava suvlarga xlorella (*Chlorella vulgaris*) ning BIN shtammlarini algolizatsiya qilish orqali erishiladi. Bundan tashqari oqava suvlar tarkibidagi mineral moddalarning o'simliklar tomonidan o'zlashtirilishi va havo tarkibidagi zaharli gazlarning kamayishiga olib keladi.

Hozirgi kunda butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng muhim muammo, atrof-muhitga chiqarilayotgan oqava suvlarni tozalashdan iboratdir. Oqava suvlarni tozalashda har xil zamonaviy biotexnologik jarayonlardan foydalanib kelinmoqda. Birinchidan, oqava suv tarkibidagi qattiq chiqindilar tindirgichda saqlanib qoladi. Keyin, faollashtirilgan loy hamda oksidlash, biofiltrlar va anaerobik usullardan foydalanib kelinmoqda. Ushbu usullarni amalga oshirishda organik moddalarni parchalashga mos mikroorganizmlardan foydalanilgan.

Chorvachilik komplekslaridan chiqadigan oqava suvlar tarkibidagi organo-mineral moddalarni, oltin ishlab chiqarish korxonalaridan chiqadigan oqava suvlar tarkibidagi sianidlarni, mineral o'g'itlar ishlab chiqaradigan korxonaning oqava suvlarini mikroskopik suv o'tlari yordamida tozalashning biotexnologik usullari ilmiy jihatdan asoslangan.

Yashil suv o'tlari vakillaridan xlorella (*Chlorella*) va senedesmus (*Scenedesmus*) o'simliklari har xil oqava suvlarda ko'paytirilib, ularning faollik bilan o'sib rivojlanishi va suvlar organo - mineral moddalardan 90-95% tozalanishi isbotlangan.

Suv obyektlari ifloslanishining oldini olishda sanoat va kommunal - maishiy korxonalari oqava suvlarini daryo va boshqa suv havzalariga tashlashdan oldin ularni tozalash umumqabul qilingan usul hisoblanadi. Hozirgi kunda ularni tozalashda, asosan, fizik - mexanik, fizik-kimyoviy va biologik usullardan foydalaniladi. Bularning ichida oqava suvlarini tozalashda biologik usul eng samarador usul bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mary Lissy P.N., G. Madhu. Removal of Heavy Metals from Waste Water Using Water Hyacinth. International Journal on Transportation and Urban Development. 1(1), 2011, 48-53.
2. Mirela S., Iulian S., Iuminița G., Irina-Claudia A. Treatment of wastewater from swine and poultry slaughterhouses. Journal of Engineering Studies and Research. 24(2), 2018, 103-106.
3. Гула К.Е. Использование ряски малой (*Lemna minor* L) в процессе очистки промышленных стоков золоторудных предприятий в бассейне р. Амур. Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент. 2012. 2(11). С. 13-19.

4. Larisa S., Yevgeniy K., Veronika Z., Marina K., Henryk S. New approaches in biological wastewater treatment aimed at removal of organic matter and nutrients. *Ecological Chemistry and Engineering* 2019; 26(2), 331-343.
5. Каримов Б.А., Исмаилова А.М. Культивирование *Lemna minor* L. на сточных водах городской канализации. *Universum: Химия и биология: электрон. научн. журн.* 2017. 1(31). С. 1-3.
6. Раимбеков К.Т. Биологическая очистка сточных вод животноводческих комплексов с использованием высших водных растений. *Universum: Химия и биология: электрон. научн. журн.* 2017. 3(33). С. 14-17.
7. Юнусов, Х., Комилжонов, С., & Федотов, Д. (2024). МОРФОЛОГИЯ ЯИЧНИКОВ У КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В НЕКОТОРЫЕ ВОЗРАСТНЫЕ ПЕРИОДЫ. Вестник Ошского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния, (1), 74-80.
8. Юнусов, Х. Б., Федотов, Д. Н., Васютенок, В. И., Сафаров, А. А., & Комилжонов, С. К. (2022). Основы перепеловодства и повышения яйценоскости птицы.
9. Федотов, Д. Н., Комилжонов, С. К., & Кучинский, М. П. (2019). Структурно-функциональная характеристика яичников у крупного рогатого скота при применении витаминно-минерального препарата «Антимиопатик».
10. Юнусов, Х. Б., & Комилжонов, С. К. (2025). Влияние витаминно-минерального препарата на обмен некоторых минеральных веществ в крови у крупного рогатого скота.
11. Комилжонов, С. К. (2025). Морфологические изменения фолликулярного аппарата яичника крупного рогатого скота при применении витаминно-минерального препарата.
12. Юнусов, Х. Б., & Комилжонов, С. К. (2024). Особенности морфологических изменений яичников при их гипофункции у коров.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING AYRIM TUMANLARIDA BUZOQLAR ORASIDA KINDIK DABBASINING TARQALISHINI O'RGANISH

Bekmuratov K¹, Narziyev B².

¹*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali.*

²*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.*

Kirish. Bugungi kunda Respublikamiz chorvachiligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan qoramolchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son «O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori va 2022 yil 31 martdagi sonli «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlashni tubdan takomillashtirish» to'g'risidagi PQ №187 qarorlarida chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni bajarishda buzoqlarning kasalliklarini davolash va oldini olish asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ko'pchilik fermer xo'jaliklarida sigirlarni boqish avval respublika sharoitida moslashmaganligi sababli qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ham sigirlarning mahsuldorligini oshirish va yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishi maqsadida buzoqlarni oziqlantirish va saqlash sharoitlarining buzilishi buzoqlar orasida xirurgik kasalliklarni (dabba) keltirib chiqarmoqda. Buzoqlar kindik dabbasini davolash va oldini olish maqsadida xo'jaliklar sharoitida ularni oldini olish chora-tadbirlarini izlab topish dolzarb